

**AHOLIGA BEPUL YURIDIK YORDAM KO‘RSATISH TIZIMI:
QONUNCHILIK, AMALIYOT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Fayziev Xayriddin Sirojiddinovich

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti
Pedagoglar markazi mudiri v.b.;
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Maqolada aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimi bilan bog‘liq masalalar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim mexanizm ekanligiga urg‘u berilib, uning huquqiy asoslari hamda shakllari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tizimni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bepul yuridik yordam, davlat hisobidan yuridik yordam, yuridik klinika, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, huquqiy islohotlar.*

**FREE LEGAL AID SYSTEM: LEGISLATION, PRACTICE, AND
DEVELOPMENT PROSPECTS**

Fayziev Khayriddin Sirojiddinovich

*Training Institute for lawyers under the Ministry of Justice
Acting the Head of the pedagogical center;
Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences*

Abstract: *The article emphasizes that issues related to the system of providing free legal aid to the population are an important mechanism in the formation of a legal state and civil society, and analyzes opinions on its legal foundations and forms. Proposals and recommendations on the prospects for the development of this system were also given.*

Keywords: *free legal aid, legal aid at the expense of the state, legal clinic, rule of law, civil society, legal culture, legal reforms.*

СИСТЕМА БЕСПЛАТНОЙ ЮРИДИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Файзиев Хайриддин Сирожиддинович

*Институт переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
и.о. заведующего Центром педагогов;
доктор философии (PhD) по юридическим наукам*

Аннотация: В статье подчеркивается, что вопросы, связанные с системой оказания бесплатной юридической помощи населению, являются важным механизмом формирования правового государства и гражданского общества, анализируются мнения о его правовых основах и формах. Также даны предложения и рекомендации по перспективам развития данной системы.

Ключевые слова: бесплатная юридическая помощь, юридическая помощь за счет государства, юридическая клиника, правовое государство, гражданское общество, правовая культура, правовые реформы.

Kirish

Mamlakatimizda inson huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan bo‘lib, ularda aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratish nazarda tutilgan. Mazkur tizim har qanday demokratik davlatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklaridan to‘laonli foydalanishini ta‘minlashdan iboratdir. Qolaversa, davlat tomonidan bepul yuridik yordam olish huquqining kafolatlanganligi, jamiyatda nafaqat huquqiy adolatni, balki ijtimoiy tenglikni ham ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yuridik yordam ko‘rsatish tushunchasi

Ushbu maqola doirasida “aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish” masalalari xususida fikr-mulohazarimizni bildirar ekanmiz, avvalo, mazkur terminning tushunchasini, uning “yuridik yordam ko‘rsatish” terminidan farqli jihatlarini aniqlab olishimiz muhim hisoblanadi.

Lug‘atlarga “bepul yuridik yordam ko‘rsatish” termini shu holicha bir butun tarzda kiritilmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘atida”²⁸ “bepul”, bepul-bebadal” terminlari mavjud bo‘lib, “evaziga hech qanday pul, haq olinmaydigan, tekin”, degan ma‘noni bildiradi. Bundan shuni angab olish mumkinki, agar gap bepul yuridik yordam ko‘rsatish haqida yuritiladigan bo‘lsa, ushbu holatda ko‘rsatiladigan yordam, tom ma‘noda tekin (ya‘ni, keyinchalik hech bir manbadan qoplanmaydigan) bo‘lmog‘i kerak.

Bugungi kunda xalqaro hujjatlarda ham “bepul yuridik yordam ko‘rsatish”, termini aynan shu kontekstda uchramaydi.²⁹ Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda fikrlarimizni rivojlantiradigan bo‘lsak, bepul yuridik yordam atamasi yuridik yordam, masalan, advokat tomonidan mutlaqo bepul ko‘rsatilishini anglatishi kerak. Vaholanki, advokat o‘z xizmatlari uchun davlatdan qisman yoki to‘liq to‘lovni olish orqali faoliyatini olib boradi.

Ko‘p davlatlarda o‘xshash vaziyatlarda **legal aid** (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada) **l’aide juridique** (Kanada, Fransiya), **asistencia legal** (Argentina, Meksika) terminlari qo‘llanilib, mazmun jihatidan yuridik yordam yoki huquqiy yordam ma‘nosini beradi. Bu esa o‘z navbatida, ko‘rsatiladigan yuridik yordam bepul emasligini, haq davlat hisobidan qoplab berilishini anglatadi.³⁰

F.Otaxonov,³¹ yuridik yordam — “yuristlar tomonidan jismoniy shaxslarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda, ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlashda, yuridik shaxslarning buzilish xavfi mavjud bo‘lgan yoki buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘rsatiladigan faol professional yordami tushuniladi”, deya ta‘rif berilgan olimlar fikrini qo‘llab quvvatlagan.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda ham xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ilg‘or tajribasi o‘rganilib, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonunda, davlat hisobidan yuridik yordamga ushbu Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat hisobidan ko‘rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam, deya tushuncha berilgan.

Shu o‘rinda “yuridik yordam” terminini “yuridik xizmatlar ko‘rsatish” termini bilan chalkashtirib yubormaslik zarur. Amaldagi qonunchilik normalari hamda uni qo‘llash amaliyotidagi kuzatishlar, hozirgi vaqtda yuridik yordam tushunchasi va yuridik xizmat

²⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008.

²⁹ Программы Управления ООН по наркотикам и преступности (УНП ООН) для государств Центральной Азии 2015 - 2021 гг., подпрограммы 2: Уголовное правосудие и предупреждение преступности (<https://www.unodc.org/roca/en/news/unodc-launches-its-2022-2025-programme-for-central-asia-rus.html>)

³⁰ Программы Управления ООН по наркотикам и преступности (УНП ООН) для государств Центральной Азии 2015 - 2021 гг., подпрограммы 2: Уголовное правосудие и предупреждение преступности (<https://www.unodc.org/roca/en/news/unodc-launches-its-2022-2025-programme-for-central-asia-rus.html>)

³¹ Otaxonov F.H.. Tadbirdorlar huquqlari va yuridik xizmat.. — Toshkent: “Adolat”, 2018.-31 b.

tushunchasi to‘liq ochib berilmaganligini ko‘rsatib, hujjatlarda yuqoridagi atamalarni farqlash imkonini beradigan asosiy belgilarni topish juda qiyin ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim mualliflar (T. I. Ilina, A. I. Muranov, D. V. Novak, G. K. Sharov) bu tushunchalar bir-biridan farq qilmasligini qayd etadilar. Boshqalari esa, aksincha, ularga qarshi turib, o‘z pozitsiyasini asoslashga harakat qilishgan. Masalan, O. S. Ponasyuk —advokatura doirasiga kiradigan hamma narsa malakali “yuridik yordam”dir, bu sohaga kirmaydigan narsa esa “yuridik xizmatlar”dir, deb hisoblaydi.³²

Xorijiy tajriba

Shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning huquqiy asoslari deganda, bu huquqlar o‘z aksini topgan xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar nazarda tutiladi.³³ Fuqaroning yuridik yordam olish huquqi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14 (3) (d) – moddasida belgilanishicha,³⁴ har bir kishi o‘ziga qo‘yilgan har qanday ayblov ko‘rib chiqilayotganda to‘liq tenglik asosida, o‘zi qatnashib sud qilinishi va o‘zining o‘zi yoki tanlab olingan himoyachi vositasida himoya qilinishi; agar himoyachisi bo‘lmasa, unga ega bo‘lish huquqi borligi haqida xabardor qilinishi; odil sud manfaatlari talab etgan har qanday holda o‘ziga tayinlangan himoyachiga ega bo‘lish, unga to‘lash uchun yetarli mablag‘i bo‘lmagan barcha hollarda o‘ziga himoyachining tekinga berilishi kafolati ta‘minlanishi huquqiga egadir.

Shunday qarashlarni Yevropa Kengashi doirasida qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasida (1950-1955)³⁵ ham ko‘rishimiz mumkin.

Hindiston Konstitutsiyasida odil sudlovni ta‘minlash maqsadida bepul yuridik yordam olish huquqi alohida nazarda tutilgan.³⁶ Unga ko‘ra, Konstitutsiyada (1949), art. 39A: “Davlat huquqiy tizimining ishlashi teng imkoniyatlar asosida adolatni rag‘batlantirishini ta‘minlaydi va, xususan, tegishli qonunchilik yoki sxemalar yoki boshqa usullar bilan bepul huquqiy yordam ko‘rsatadi, bu esa hech bir fuqaroga iqtisodiy yoki boshqa nogironlik tufayli adolatni ta‘minlash imkoniyatlari rad etilmasligini ta‘minlaydi.”

BMTning qator tashkilotlari tomonidan davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni tartibga soluvchi qonunni qabul qilish hamda ushbu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish uchun mas‘ul bo‘lgan organni belgilash tavsiya etilgan. AQSH, Buyuk Britaniya,

³² G‘ulomova A.S. Advokatlik faoliyatida yuridik yordam ko‘rsatishni tartibga solish xususiyatlari.

³³ G‘afurov A., Mo‘minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2012, -181 b.

³⁴ Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (<https://lex.uz/docs/-2640479>)

³⁵ Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, article 6

(https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)...

³⁶ Hindiston, Konstitutsiya (1949), art. 39A. (https://www.constituteproject.org/constitution/India_2012)

Finlyandiya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Gruziya, Moldova, Rossiya va Tojikistonda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni tashkil etish alohida tashkilotlar (markaz, byuro yoki kengash) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish

Mamlakatimizda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko‘ra, “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi”. Ushbu hujjatning 141-moddasida esa “Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi”.³⁷

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqqan holda, 2023-yilda O‘zbekistonda “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonun³⁸ qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsad – jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar bilan kafolatlangan o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish hamda himoya qilish uchun zarur bo‘lgan barqaror va ishonchli davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yaratish, yuridik yordam olish va odil sudlovga erishishda teng imkoniyatlardan foydalanishni ta‘minlash hisoblanadi.

Qonun bilan tizimning asosiy tamoyillari, ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va fuqarolarning yuridik yordam olishga bo‘lgan huquqlarining kafolatlari belgilab qo‘yildi. Shuning bilan birga, yuridik yordam ko‘rsatiladigan ishlar qatoriga fuqarolik, ma‘muriy va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni kiritish orqali fuqarolarning bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari kengaytirildi.

Nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish

“Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qaroriga³⁹ asosan “Madad” – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etilib, uning asosiy vazifasi fuqarolarga birlamchi bepul yuridik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, bunda ular huquqiy masalalar yuzasidan bevosita va onlayn shaklda maslahatlar hamda tushuntirishlar olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tashkilotning faoliyati nafaqat yuridik maslahat berish bilan chegaralanib qolmay, balki fuqarolarning huquqiy bilimlarini jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>

³⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonuni // <https://lex.uz/docs/6502543>

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, <https://lex.uz/docs/4500969>

o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda oshirib borish, bu jarayonga ko‘ngillilarni keng jalb qilish orqali huquqiy savodxonlikni ommalashtirishga ham qaratilgan.

Shuningdek, “Madad” aholining huquqiy so‘rovlarini muntazam tahlil qilib, ularning natijalariga tayangan holda huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish va amaldagi qonunchilikni mukammallashtirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqadi. Bu jarayonda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etish, innovatsion usullarni qo‘llash orqali aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish ham tashkilotning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, mazkur muassasa tomonidan yuritilayotgan “Advice.uz” huquqiy axborot portali muntazam ravishda yangilanib, fuqarolar uchun ochiq, ishonchli va tezkor huquqiy ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi. Portalda huquqiy sohaga oid 40 ta bo‘lim mavjud bo‘lib, ularga 3 mingga yaqin kontentlar bir qator tillarda kiritilgan. Portaldan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshgani barobarida, bir kunlik foydalanuvchilar soni 12 ming nafarni tashkil etmoqda.⁴⁰ Shu bois, “Madad” NNTning ushbu vazifalari mamlakatda aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirishda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi.

2024-yil 1-iyuldan boshlab adliya organlarining qo‘shimcha faoliyat yo‘nalishi sifatida fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko‘rsatishning yangi tartibi joriy etildi. Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmonida⁴¹ belgilab berilgan bo‘lib, u huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Farmonga muvofiq, hozirda Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlari natijasida, “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda respublikaning barcha tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlarida muassasaning huquqiy maslahat byurolari tashkil etildi.

Maslahat byurolari orqali aholiga bepul yuridik maslahatlar berish, shuningdek, nizolarni sudgacha va sud orqali hal etishda zarur protsessual hujjatlarni tayyorlashda ko‘maklashish ishlari yo‘lga qo‘yilganligi e‘tiborga molikdir. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning adolatli sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

⁴⁰ Fuqarolar bepul yuridik yordam olishi mumkinmi? <http://e-maslahat.uz/uz/news/1959>

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/uz/docs/6937312>

“Advokatura to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra,⁴² davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun tanlangan advokat fuqaroning to‘lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko‘rsatishdan bosh tortishga haqli emas. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatgan advokatga ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda va miqdorlarda amalga oshiriladi.

Qonunning talabiga ko‘ra davlat hisobidan yuridik yordam faqat Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar reyestriga kiritilgan advokatlar tomonidan ko‘rsatilishi belgilangan.

Quyidagi jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega:

1) kam ta‘minlangan shaxslar, agar ular:

fuqarolik ishlari bo‘yicha da‘vogarlar yoki javobgarlar;

ma‘muriy ishlar bo‘yicha arizachilar;

ma‘muriy qamoq tarzidagi ma‘muriy jazo nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar;

jinoyat ishlari bo‘yicha gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, shuningdek mahkumlar bo‘lsa;

2) ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar, ularga “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda;

3) o‘z huquqlari buzilgan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar;

4) O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi.

Yuridik klinikalar tomonidan aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish

Aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi yuridik klinikalar bir qator tashkilotlar (oliy ta‘lim muassasalari, kasaba uyushmalari tashkilotlari v.h.k.) huzurida faoliyat yuritib kelishadi. Xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti Yuridik klinikasi fuqarolarga bepul huquqiy yordam berib, ularning og‘irini yengil qilish bilan birga, o‘quv jarayonining sifatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Jumladan, talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va

⁴² O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni <https://www.lex.uz/acts/54503>

universitetdan uzoqlashmagan holda ularning amaliy ko‘nikmalarini oshirishda noyob amaliyotlarni joriy etib kelmoqda.⁴³

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Yuridik klinikasi fuqarolarga bepul huquqiy yordam (huquqiy maslahatlar, ariza loyihalarini shakllantirish va boshqalar) ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatmoqda. Klinikaga rasmiy sahifa orqali onlayn murojaat qoldirish (clinic.proacademy.uz) yoki shaxsan tashrif buyurish orqali bepul yuridik yordam olish mumkin.⁴⁴

Xulosa

Aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil insonparvarlik siyosatiga hamohang ravishda so‘zsiz takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Ushbu jarayonlarda sohada mavjud bo‘lgan ayrim muammolar – jumladan, malakali kadrlar yetishmovchiligi, chekka hududlarda sifatli xizmat ko‘rsatishning qiyinlashuvi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, fuqarolarning huquqiy savodxonligi va madaniyatini muttasil oshirish borish zarurati, axborot tizimlarining to‘liq integratsiyalashmaganligi kabi musalalarga huquqiy hamda tashkiliy yechimlar topilishi kerak bo‘ladi.

Shuning bilan birga, yuridik kadrlar uchun muntazam o‘quv kurslarini tashkil etish, tizimni barqaror moliyalashtirish uchun davlat byudjeti bilan bir qatorda xususiy sektor va xalqaro mablag‘larini jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, hududiy qamrovni kengaytirish maqsadida mobil va onlayn yuridik yordam xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek, barcha yuridik yordam xizmatlarini yagona elektron platforma orqali integratsiyalash va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish taklif etiladi.

Qayd etganimizdek, aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi barobarida, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, fuqarolarning huquqlari samarali himoya qilinishi hamda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

⁴³ https://uza.uz/uz/posts/joriy-yil-davomida-tdyuu-yuridik-klinikasi-tomonidan-2-mingdan-ortiq-aholiga-huquqiy-yordam-korsatildi-video_548249

⁴⁴ <https://proacademy.uz/uz-cyr/news/view?alias=2221>